



INTERNATIONAL STANDARDS OF VALUED TAX ACCOUNTING AND ACHIEVEMENTS OF ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN

A. Z. Abror

student

Fiscal institute

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: value added tax, preferential rate, keyless signature infrastructure, blockchain technology

Received: 10.02.23

Accepted: 12.02.23

Published: 14.02.23

Abstract: In the article the experience of Value added tax of foreign countries is studied and the prospects of its application are analyzed in Uzbekistan

QO'SHILGAN QIYAMAT SOLIG'INI HISOBGA OLISHNING XALQARO STANDARTLARI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH YUTUG'LARI

A. Z. Abror

talabasi

Fiskal institut

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: qo'shilgan qiymat solig'i, imtiyozli stavka, kalitsiz imzo infratuzilmasi, blokcheyn texnologiyasi.

Annotatsiya: Maqolada qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olishda xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan va uni O'zbekistonda qo'llash istiqbollari tahlil qilingan.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ УЧЕТА НАЛОГА НА СТОИМОСТЬ И ДОСТИЖЕНИЯ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

A. Z. Abror

Студент

Фискального института

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: налог на добавленную стоимость, льготная ставка, введения налога на добавленную стоимость

KIRISH

Hozirgi vaqtda qo'shilgan qiymat solig'i Yevropa ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir.

Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi (Toshmatov, 2004).

ASOSIY QISM

Qo'shilgan qiymat solig'i bilvosita soliq sifatida soliq to'lovchilardan undirish va davlat byudjetni tez to'ldirish uchun eng qulay soliq turlaridan biridir. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar qiymatiga qo'shilgan holda iste'molchilardan undirilganligi sababli so'nggi iste'molchi hisoblanmish aholi daromadlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining xalqaro amaliyotiga nazar tashlasak, ushbu soliq dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlarida undirilgani holda, soliq stavkasi turlicha ekanining guvohi bo'lamiz. Ushbu ma'lumotlar tahlilidan ko'rinadiki, qo'shilgan qiymat solig'ining 10 foizgacha bo'lgan stavkasini qo'llovchi davlatlar 15 tani, 10 dan 15 foizgacha bo'lgan stavkasini qo'llovchi davlatlar 35 tani, 15 dan 20 foizgacha bo'lgan stavkasini qo'llovchi davlatlar 61 tani (shundan 4 tasi YEI mamlakatlari), 20 va undan yuqori foizli stavkasini qo'llovchi davlatlar 39 tani (shundan 24 tasi YEI mamlakatlari) tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'ining 15 dan 20 foizgacha bo'lgan stavkalarini qo'llovchi mamlakatlar soni nisbatan ko'pchilikni, ya'ni jamiga nisbatan 41 foizni tashkil etadi.

Davlatlar tarkibiga nazar tashlasak, 20 va undan yuqori foizli stavkani qo'llovchilarning aksariyati (qariyb 80 foizi) Yevropa davlatlari, shu jumladan 16 tasi G'arbiy Yevropa va Skandinaviya davlatlari ekanini ko'rishimiz mumkin. Biz yaxshi bilamizki, ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti yuksak darajada rivojlangan, aholisi yaxshi ta'minlangan va iste'mol darajasi ancha yuqori. Tabiiyki, bunday davlatlarda iste'molga soliqlarning yuqori stavkasini qo'llash salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining yuqori stavkasini qo'llovchi mamlakatlar orasida bizning davlatimiz ham borligini ko'rishimiz mumkin. Biroq bu mamlakatlardan 32 tasida, ya'ni 82 foizida qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llovchi ko'pchilik mamlakatlar qatori tabaqalashgan (qisqartirilgan) stavkalardan foydalaniladi.

Rivojlangan davlatlardan faqat Daniyada qo'shilgan qiymat solig'ining qisqartirilgan imtiyozli stavkasi mavjud emas. Shunisi e'tiborga molikki, Yaponiya (8%), Shveysariya (8%), Lixtenshteyn (8%), Singapur (7%), Malayziya (6%), Kanada (5%) va Tayvan (5%) kabi iqtisodiyoti rivojlangan qator mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ining 5-8 foizli stavkasi qo'llanadi. Shuningdek, BRICS mamlakatlaridan JAR (14%), Braziliya (12%), Hindiston (5.5%) hamda Katta 20 lik (G20) tarkibiga kiruvchi Filippin (12%), Avstraliya (10%), Janubiy Koreya (10%) va Indoneziya (10%) kabi davlatlarda ham qo'shilgan qiymat solig'ining 15 foizdan past bo'lgan stavkalari qo'llanadi. Hatto, qo'shni Qozog'istonda ham ushbu soliq stavkasi 12 foizni tashkil qiladi.

Buning uchun qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqib, ushbu soliqni undirish mexanizmini to'g'ri yo'lga qo'yish, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'ini ishlab chiqarish va realizatsiyaning barcha bosqichlarida undirib borgan holda barcha tadbirkorlik subyektlariga joriy qilish lozim. Shu bilan birga, soliqqa tortishdagi adolat va ijtimoiy himoyani ta'minlash maqsadida uning tabaqalashgan (umumiy, imtiyozli va nol darajali) stavkalarini joriy qilish maqsadga muvofiq. qo'shilgan qiymat solig'ining tabaqalashgan stavkalari 58 ta mamlakatda yoki qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llovchi barcha davlatlarning qariyb 40 foizida amal qiladi.

Aksariyat mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ining tabaqalashgan stavkalari muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelinayotgan bo'lsada, bizning mamlakatimizda ushbu amaliyot bekor qilindi. Dastlab eng zarur iste'mol mahsulotlari bo'lgan besh turdagi tovarlarga 10 foiz, so'ngra 15 foizli qisqartirilgan (imtiyozli) stavkaning o'rnatilishi xo'jalik tizimidagi o'zaro hisob-kitoblarda chalkashliklarga olib keldi. Aslida, bu chalkashliklar umumiy stavkada qo'shilgan qiymat solig'i bilan xomashyoni olib, imtiyozli stavkada o'z mahsulotini realizatsiya qilgan korxonalarning qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha manfiy tafovut summasini byudjet tomonidan qoplab berish mexanizmining to'g'ri yo'lga qo'yilmagani natijasi bo'lsa ajab emas. Oqibatda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qisqartirilgan 15 foizli stavka 2000-yildan bekor qilindi va amalda faqat 20 foizli bazaviy stavka qoldirildi. Biroq yuqorida ta'kidlaganimizdek, bir qator xorij mamlakatlarida qo'shilgan qiymat solig'ining tabaqalashgan stavkalari katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, iste'molni soliqqa tortishda adolat tamoyilining amal qilishini ta'minlaydi. Ushbu davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari o'rtasidagi manfiy farqning davlat tomonidan qoplab berilishi yaxshi yo'lga qo'yilgan deb izohlash mumkin.

Italiyada tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solig'i manfiy tafovutini qaytarishning soddalashtirilgan va tezlashtirilgan mexanizmidan foydalanadi. Chunki, davlat qo'shilgan qiymat solig'ining shunday stavkalari amal qilishidan ijtimoiy manfaat kutadi. Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obyekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovar oborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovar oboroti ham hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i aksariyat davlatlarda (120 dan ortiq mamlakatlarda) qo‘llanilib kelinmoqda. Har qaysi davlat o‘zining iqtisodiy holati va byudjet-soliq qo‘llab kelmoqda. Ayrim davlatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘ini qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlariga e‘tibor qaratsak. Argentinada qo‘shilgan qiymat solig‘i — bu iste‘molga soliq hisoblanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib, asosan ko‘char mulk obyektlarini sotuvchi shaxslar, sotish va sotib olish faoliyatini o‘z nomidan, lekin uchinchi shaxslar hisobidan tashkil qiluvchi shaxslar, mol- mulkni ijaraga beruvchilar va respublika hududida soliqqa tortiladigan xizmatlarni ko‘rsatuvchi shaxslar, ko‘char mulk obyektlarini import qiluvchilar, xizmatlarni import qiluvchilar, tadbirkorlik subyektlarining vaqtinchalik birlashmalari (oddiy shirkat shartnomasi kabi) konsorsiumlari hisoblanadi.

Ko‘char mulk obyektlarining sotilishi (respublika hududida mavjud bo‘lgan yoki respublika hududida sotilayotgan), respublika hududida ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan ijara xizmatlari, ko‘char mulk obyektlari va xizmatlarni importi qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq solish obyektlari hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining bazaviy stavkasi 21 foiz qilib belgilangan. Bundan tashqari, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha 27 foiz miqdorida orttirilgan soliq stavkasi va 10,5 foiz, 2,5 foiz miqdorida va 0 foiz miqdorida kamaytirilgan soliq stavkalari belgilangan. Orttirilgan 27 foiz miqdoridagi soliq stavkasi umumiy xizmat ko‘rsatish sohalariga, ya‘ni gaz, elektr energiyasi, suv ta‘minoti va telekommunikatsiya sohalariga qo‘llaniladi.

Kamaytirilgan 10,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasi faoliyat turlarining spetsifikatsiyasidan kelib chiqqan holda qo‘llaniladi. Jumladan, ma‘lum bir xom-ashyolar savdosi uchun, sanitariya va tibbiy xizmatlar uchun hamda 100 km dan ortiq masofaga yo‘lovchilarni tashish faoliyat uchun tatbiq etiladi. 2,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasi ayrim turdagi gazeta va jurnallarni chop etish, import qilish, elektron gazeta va jurnallar chop etish hamda ularning reklama xizmatlariga nisbatan qo‘llaniladi. 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasi eksport amaliyotlari uchun qo‘llanilishi belgilangan.

Argentina davlatida qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari o‘tgan besh yil davomida o‘zgarishsiz saqlanib kelmoqda. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq deklaratsiyalari (soliq hisobotlari) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 18-22-sanalari davomida soliq idoralariga taqdim etilishi va to‘lov amalga oshirilishi belgilangan.

Germaniya hududida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha korporatsiyalar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq solish obyekti — realizatsiya qilinayotgan tovar, ish va xizmatlar qiymati bo‘lib hisoblanadi. Soliq solish bazasi esa tovar, ish va xizmatlarning sotish narxi (oxirgi qiymati) bilan unga sarflangan material va xom-ashyolarning qiymati o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining bazaviy stavkasi 19 foiz qilib belgilangan bo'lib, ayrim tovarlar ya'ni, oziq — ovqat mahsulotlari va poligrafiya mahsulotlariga nisbatan kamaytirilgan 7 foiz miqdoridagi soliq stavkasi qo'llanilishi belgilangan. Shuningdek, xalqaro tashuvlar uchun 0 darajali soliq stavkasi joriy qilingan. Germaniyada tibbiy xizmatlar va sug'urta xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan. Germaniya davlatida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq deklaratsiyalari (soliq hisobotlari) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10 sanasiga qadar soliq idoralariga taqdim etilishi va to'lovlar amalga oshirilishi belgilangan

Misrda 1991-yilda bazaviy soliq stavkasi tovarlarga 13 foiz (asosiy stavka 2016-yil 1-oktyabrdan) belgilangan. Ayrim turdagi import tovarlar uchun 30 foizgacha belgilangan. Tovarlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda foydalaniladigan asbob uskunalar uchun 5 foizli soliq stavkasi belgilangan. Soliq tovarlar va xizmatlarining bahosiga qo'shiladi va iste'molchilar tomonidan savdo joyining o'zida to'lanadi. Tijorat korxonasi esa soliqni soliq idoralariga o'tkazib beradi. Shuningdek eksport amaliyotlari va unga yondosh xizmatlar uchun 0 darajali soliq stavkasi belgilangan.

Soliq to'lovchilari bo'lib tovar ishlab chiqaruvchilar, import bilan shug'ullanuvchilar, xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchilar kiradi. Hozirda ular qatoriga ulgurji va chakana sotuvchilar ham kiritildi. Diplomatiya vakillari bu soliqdan ozod qilingan.

Nigeriya davlatida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari — barcha kompaniyalar hisoblanadi. obyekt — yetkazib berilayotgan tovarlar qiymati. soliq stavkasi 5 foiz. eksport operatsiyalari (yoqilgi moylash mahsulotlari bundan mustasno), diplomati vakolatxonalar va gumanitar xayriya fondlariga yetkazib berilgan tovarlar uchun 0 foiz stavka qo'llaniladi.

Barcha eksport qilinayotgan xizmatlar, tibbiy xizmatlar, bank xizmatlari va ipoteka tashkilotlari xizmatlari, ta'lim jarayoni doirasida ta'lim muassasalari tomonidan namoyish etiladigan pyesa va spektakllar, yoqilg'i moylash mahsulotlari eksporti, tibbiy va farmatsevtik mahsulotlar, chaqaloqlar uchun buyumlar, birlamchi oziq ovqat mahsulotlari, kitoblar va o'quv qurollari, eksport jarayoni zonalari va erkin savdo zonalarida foydalanish uchun import qilingan texnologik jihozlar va tovarlar, qishloq xo'jaligi korxonalariga sotilgan traktorlar va qishloq xo'jaligi texnikalari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan.

Faqatgina qayta ishlash jarayonida foydalaniladigan materiallar va qayta sotiladigan tovarlar bo'yicha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinadi. Nigeriya davlatida ham qo'shilgan qiymat solig'ining bazaviy stavkasi uzoq yillar davomida (10 yil) o'zgarishsiz saqlanib kelmoqda

Janubiy Koreya davlatida 1977-yilda 8 ta egri soliqlarni umumlashtirish va Koreya soliq tizimini tartibga solish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'i (savdodan soliq) joriy qilingan. Qo'shilgan qiymat solig'i har bir kelishuv bosqichida ya'ni tovarlarning har bir harakat bosqichida (chakana savdoni ham o'z ichiga oladi) qayta hisob kitob qilinadi va byudjetga o'tkazib beriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining bazaviy stavkasi 10 foiz miqdorida belgilangan. Madaniy mahsulotlar misol uchun gazetalar, jurnallar, kitoblar savdosi qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan. Tovarlar eksportiga, Koreyadan tashqarida ko'rsatilgan xizmatlar, xalqaro transport xizmatlari (suv yoki havo yo'llari orqali) bo'yicha nol darajali stavka qo'llaniladi. Koreyada faoliyat ko'rsatayotgan barcha tadbirkorlik subyektlari qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Xuddi shuningdek, Koreyada xorijiy korxonalar (nerezidentlar) uchun Koreyada soliqqa tortiladigan oborotlarni amalga oshirilishi yuzasidan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ro'yxatdan o'tish majburiyati vujudga keladi.

Ro'yxatdan o'tgandan so'ng xorijiy korxonalar (nerezidentlar) mahalliy soliq to'lovchilar uchun belgilangan tartib qoidalarga rioya qilishi lozim bo'ladi. agar xorijiy korxona (nerezident) Koreyada mahalliy korxona tashkil qilsa va uni o'zining moliyaviy javobgari sifatida ro'yxatdan o'tkazsa qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha alohida ro'yxatdan o'tishi shart emasligi qayd etilgan.

Hozirgi kunda qariyb 89 ta mamlakatda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tabaqalashtirilgan soliq stavkalari amalga joriy qilingan. Shundan 17 ta mamlakatda bazaviy soliq stavkasi bilan birgalikda faqatgina eksportni rag'batlantirish uchun nol darajali soliq stavkalari joriy qilingan, shu jumladan O'zbekistonda ham tovarlar eksporti va xalqaro yo'nalishlarda tashishlar va aholiga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar uchun nol darajali soliq stavkasi joriy qilingan. 72 ta mamlakatda tovarlar va xizmatlar turlariga qarab turli xil darajadagi tabaqalashtirilgan soliq stavkalari joriy qilingan. Oziq — ovqat, farmatsevtika mahsulotlari bo'yicha 50 dan ortiq mamlakatlarda bazaviy soliq stavkasiga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilangan.

Soliqqa tortish vositasida, bir tomondan milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarishgan mahsulotni eksportini yoki eksportbop tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirilsa, ikkinchi tomondan shunday tovarlarni import o'rnini bosishi bilan import tovarlar ma'lum darajada cheklanadi. Bu bilan mamlakatning erkin almashinadigan valyuta aylanmasi va zaxirasi ortib, mamlakatda iqtisodiy rivojlanish bo'ladi, milliy boylik ko'payib boradi. Qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirish jarayoni iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib amalga oshirilishi yuqori samara berishiga shubha yo'q.

Oecd (oesr, 2020) mamlakatlarida qo'shilgan qiymat solig'i standart soliq stavkasida katta o'zgarish bo'lmagan bo'lib, 2015-yildan buyon o'rtacha 19.3 foizni tashkil etib kelmoqda, ammo Yaponiyada soliq stavkasi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari uchun 10 foizdan 8 foizga pasaytirildi.

Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkalarida o'zgarishlar Xitoyda ham yuz berdi. Xitoyda qo'shilgan qiymat solig'ining uch tabaqali stavkalar amal qilib, 2019-yildan boshlab, birinchi tabaqa soliq stavkalar 16 foizdan 13 foizgacha tushirildi, shuningdek, ikkinchi tabaqa soliq

stavkasi 10 foizdan 9 foizga tushirildi, ammo uchinchi tabaqa soliq stavkasi 6 foizda o'zgarishsiz qoldi.

Ko'pgina mamlakatlar qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan stavkalarini turli xil mahsulotlarga qo'llaydilar. Gretsiyada bir qator asosiy oziq-ovqat mahsulotlari qayta tasniflandi, ushbu mahsulotlar qo'shilgan qiymat solig'ining kamaytirilgan stavkasida — 13 foizda soliqqa tortiladi. Qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkasi 24 foizni tashkil etadi.

Niderlandiyada 2020-yil 1-yanvardan boshlab tovar aylanmasi 25 000 yevro miqdorida bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ixtiyoriy ro'yxatdan o'tish chegarasini joriy etildi. Oldingi soliq qonunchiligiga asosan ushbu chegara mavjud emas edi, ya'ni ha bir tadbirkorlik subyekti faoliyatining dastlabki davridan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tashi shart edi. Avstriyada qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tashning majburiy chegarasi 30 000 yevrodan 35 000 yevroga oshirildi. Germaniyada esa 17 500 yevrodan 22 000 yevroga oshirildi. Portugaliyada qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tishning majburiy chegarasi 10000 yevrodan 12 500 yevroga oshirildi.

Estoniya hukumati bir necha yillardan beri soliq tizimida blokcheyn texnologiyasini qo'llash bo'yicha tajribalar o'tkazib kelmoqda. Xususan, Estoniyaning "guardtime" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan "keyless signature infrastructure" (kalitsiz imzo infratuzilmasi) deb nomlanuvchi ma'lumotlar bazasi o'ziga blokcheyn texnologiyasini integratsiyalashtirgan texnologiya hisoblanadi. Bu texnologiya soliq to'lovchilarga o'z shaxsiy kabinetlariga kirish, soliqqa oid tafsilotlarni bilish, ularni o'zgartirish, internet orqali onlayn tarzda soliqlarni to'lash, ortiqcha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini qisqa vaqt ichida qaytarib olish imkoniyatini beradi. Soliq organlariga esa soliqlarning o'z vaqtida to'lanishini onlayn nazorat qilish, soliq tizimi shaffofligini ta'minlash va soliq operatsiyalarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda Estoniyaliklarning 98 foizi o'z daromadlarini soliq organlariga onlayn tarzda deklaratsiya qilishmoqda. Bu soliq to'lovchilarga qulay imkoniyat bo'lib, unda soliq to'lovchilar deklaratsiya taqdim etish uchun 5 daqiqadan kam vaqt sarflashadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytganda, O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i yakuni qancha pasaytirilsa ham ko'pgina mamlakatlar qatori bizni mamlakatda ham qo'shilgan qiymat solig'i orqali davlatga byudjet tushumlarini ko'paytirishning bir instrumenti sifatida qaralsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'ida ham raqamli iqtisodiyotni qo'llash kerak deb hisoblayman va bu borada O'zbekiston ham ma'lum texnologiyalarni qo'llab soliq to'lovchilarni o'z shaxsiy kabinetlariga kirish, soliqqa oid tafsilotlarni bilish, ularni o'zgartirish, internet orqali onlayn tarzda soliqlarni to'lash, ortiqcha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini qisqa vaqt ichida qaytarib olish imkoniyatlari asta sekin yaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://lex.uz/docs/-4948595>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2018 yildagi PF-5468-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.06.2019 yildagi PF-5755-son qarori
4. "Qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi" <https://hozir.org/reja-mavzu-qoshilgan-qiymat-soligi-iqtisodiy-mohiyati-vauning.html>
5. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati nimada? Soliqlarning iqtisodiy tabiati, ularning vazifalari" <https://com-roseltorg.ru/uz/denezhnye-perevody/chemzaklyuchaetsya-ekonomicheskaya-sushchnost-nalogov-ekonomicheskayasushchnost/b>
6. Meshari Alhussain. The impact of value-added tax (VAT) implementation on Saudi banks. Journal of Accounting and Taxation